

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti,
Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrası

Dos. Tulaev Mirzakul Salamovich

BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA ULARNING MOHIYATI

Annatotsiya. Mazkur maqolada buxgalteriya hisobining schyotlari va ularning mohiyati tushuntirib berilgan. Buxgalteriya hisobining schyotlari shartli ravishda uch guruhga bo‘linishi, ularning tuzilishidagi farqlar, schyotlarda ishlatiladigan asosiy terminlarning mohiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobining schyotlari, aktiv, passiv, kontraktiv, kontrpassiv, tranzit va balansdan tashqari schyotlar, saldo, oborot (aylanma)

Korxonalarda ko‘p miqdorda xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lib, xo‘jalik mablag‘lari doimo harakatda bo‘ladi. Korxonaga rahbarlik qilish uchun xo‘jalik mablag‘larining harakati to‘g‘risida umumlashgan ma‘lumotlarni olish talab qilinadi. Bunday ma‘lumotlarni balans yordamida olish mumkin emas. Shuning uchun bu maqsadda buxgalteriya hisobining schyotlaridagi ma‘lumotlardan foydalaniladi.

Buxgalteriya hisobining schyotlari deganda, iqtisodiy jihatdan bir xil bo‘lgan xo‘jalik mablag‘lari, ularning manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlashtirish va joriy qayd qilish usuli tushuniladi. Har bir schyot aniq bir xo‘jalik mablag‘ining turini yoki manbaini yoxud xo‘jalik jarayonini qayd qilish va guruhlashtirish uchun tayinlangan.

Xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalarini ko‘payishi va kamayishini qayd qilish uchun schyot ikki qismidan iborat bo‘ladi. Uning chap qismi debet (lat. debet – qarzdor), o‘ng qismi kredit (lat. credit – u ishonadi) deb nomlanadi. «Debet» va «Kredit» iboralarini «D-t» va «K-t» belgilari bilan ifodalasa ham bo‘ladi.

Hisobot davri ichida schyotning debet qismida yozilgan summani debetli oborot deb, kredit qismiga yozilgan summalarini kreditli oborot deb aytiladi.

Schyotda boshlang‘ich saldo (it. saldo – qoldiq) hamda oxirgi qoldiq bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi moliyaviy hisobot elementlari: aktiv, majburiyat, kapital, daromadlar va xarajatlarga muvofiq guruhlashtirilgan holatdagi schyotlar majmuasidir.

Buxgalteriya hisobining schyotlari – xo‘jalik yurituvchi sub’ektning iqtisodiy resurslarining holati va harakati to‘g‘risidagi buxgalteriya axborotlarini qayd qilish va saqlash usuli va unga qo‘yilgan talablardir. Buxgalteriya hisobi schyotlari o‘zining mohiyati bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi.

Doimiy schyotlar – hisobot davrining oxirida qoldiqqa ega bo‘lgan va buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital schyotlaridir. Doimiy schyotlar aktiv, passiv, kontraktiv va kontrpassivlarga bo‘linadi.

Aktiv schyotlar (A) – xo‘jalik aktivlarini aks ettiradigan va iqtisodiy resurslarning hisobot davri boshidagi qoldig‘ini va hisobot davridagi ko‘payishini debet tomonida va shu davrdagi kamayishini kredit tomonida aks ettiradigan schyotlardir.

Passiv schyotlar (P) – xo‘jalikning majburiyatlari va kapitalini aks ettirish uchun tayinlangan, hisobot davri boshidagi qoldiqni, hisobot davri mobaynidagi majburiyatlar va kapitalning o‘shishini kredit tomonida va shu davrdagi majburiyatlar va kapitalning kamayishini debet tomonida aks ettiradigan schyotlardir.

DOIMIY SCHYOTLAR

| Aktiv | | | Passiv | | |
|--------------------------------------|----------------------------|--------|-----------------------------|-------------|--------------------------------------|
| Debet | Kontr-passiv | Kredit | Debet | Kontr-aktiv | Kredit |
| Hisobot davri boshida qoldiq (saldo) | | | | | Hisobot davri boshida qoldiq (saldo) |
| Aktivlarning ko‘payishi (+) | Aktivlarning kamayishi (-) | | Passivlarning kamayishi (-) | | Passivlarning ko‘payishi (+) |
| Hisobot davri oxirida qoldiq (saldo) | | | | | Hisobot davri oxirida qoldiq (saldo) |

Kontr-aktiv schyot (KA) – bu shunday schyotki, moliyaviy hisobotda aktivning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig‘i u bilan bog‘liq bo‘lgan aktiv schyotining qoldig‘idan chegirib tashlanadi.

Kontr-passiv schyot (KP) – bu shunday schyotki, moliyaviy hisobotda majburiyat yoki kapitalning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig‘i u bilan bog‘liq bo‘lgan passiv schyotining qoldig‘idan chegirib tashlanadi.

Tranzit schyotlar (T) – hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopilib ketadigan va hisobot davri oxirida qoldig‘i bo‘lmaydigan daromad va xarajatlarning vaqtinchalik schyotlaridir, bu schyotlarning ma‘lumotlari moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi.

TRANZIT (VAQTINCHALIK) SCHYOTLAR

| Xarajat | | | Daromad | | | | | |
|--|--------|--------|--|-------|---------|--|--|--|
| Debet | Zarar | Kredit | Debet | Foyda | Kredit | | | |
| Hisobot | davri | | | | Hisobot | davri | | |
| boshida | qoldiq | | | | boshida | qoldiq | | |
| (saldo) | doimo | | | | (saldo) | doimo | | |
| nolga | teng | | | | nolga | teng | | |
| bo'ladi | | | | | bo'ladi | | | |
| Xarajat (zarar)- larning ko'payishi (+) | | | Xarajat (zarar)- larning kamayishi (-) | | | Daromad (foyda)larning kamayishi (-) | | |
| Hisobot davri oxirida qoldiq (saldo) doimo nolga teng bo'lishi kerak | | | Daromad (foyda)larning kamayishi (-) | | | Hisobot davri oxirida qoldiq (saldo) doimo nolga teng bo'lishi kerak | | |

Balansdan tashqari schyotlar (BT) – korxonaga tegishli bo'lmagan, biroq vaqtinchalik foydalanishda bo'lgan aktivlar, shartli huquq va majburiyatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun tayinlangan schyotlardir. Balansdan tashqari schyotlar biror bir schyot bilan korrespondensiyalanmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma Moliya vazirining 2002 yil 9 sentabr 103-buyrug'i bilan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS №21) sifatida tasdiqlangan va Adliya vazirligida ro'yxatga olingan 2002 yil 23 oktabrda 1181-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Тулаев, М. С. (2022). МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*, 2(1).

Тулаев, М. (2021). Аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудиторлик текширувини ташкил қилиш масалалари. *Архив научных исследований*, 1(1).